



INTERPRETATION OF NATURAL ELEMENTS IN ANCIENT RELIGIOUS BELIEFS

Bakhtiyor Khalmuratov

Doctor of Philosophy (PhD) in History

Associate Professor, Namangan State University

b.khalmuratov@mail.ru

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: ancient religious beliefs, shamanism, nature, natural elements, water, fire, ash, hair, traditional healers, healing practices, “Avesta”, Islam, field ethnographic expeditions.

Received: 04.04.26

Accepted: 05.04.26

Published: 06.04.26

Abstract: This article presents ethnographic perspectives related to natural elements in shamanism, one of the ancient religious beliefs, as well as in its ritual attributes. It examines the nature-related aspects of shamanistic beliefs and highlights transformations in the ritual tools used by traditional healers (tabibs and bakhshis) operating in the Fergana Valley (whip, ash, water, fire, human hair, etc.).

QADIMIY DINIY E'TIQODLARDA TABIAT UNSURLARI TALQINI

Baxtiyor Xalmuratov

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Namangan davlat universiteti dotsenti

b.khalmuratov@mail.ru

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Qadimiy diniy e'tiqodlar, shomonlik, tabiat, tabiat unsurlari, suv, olov, kul, soch, tabiblar, davolash jarayonlari, “Avesto”, islom dini, dala-etnografik ekspeditsiyalar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimiy diniy e'tiqodlardan biri bo'lgan shomonlik va uning marosimiy atributlaridagi tabiat unsurlari bilan bog'liq etnografik qarashlar aks etgan. Unda shomonlik e'tiqodining tabiat bilan bog'liq jihatlari, Farg'ona vodiysi hududida faoliyat olib borayotgan tabib-baxshilarning marosim anjomlari (qamchi, kul, suv, olov, inson sochi va boshq.)dagi o'zgarishlar yoritib berilgan.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРИРОДНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ В ДРЕВНИХ РЕЛИГИОЗНЫХ ВЕРОВАНИЯХ

Бахтиёр Халмуратов

Доктор философии (PhD) по историческим наукам,
доцент Наманганского государственного университета

b.khalmuratov@mail.ru

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: древние религиозные верования, шаманизм, природа, природные элементы, вода, огонь, зола, волосы, народные целители, лечебные практики, «Авеста», ислам, полевые этнографические экспедиции.”

Аннотация: В данной статье отражены этнографические представления, связанные с природными элементами в шаманизме — одном из древних религиозных верований, а также в его ритуальных атрибутах. Рассматриваются аспекты шаманских верований, связанные с природой, а также изменения в ритуальных принадлежностях народных целителей-бахши, действующих на территории Ферганской долины (кнут, зола, вода, огонь, человеческие волосы и др.).

Kirish. Yoshligimizda nuroniylar “Tabiat bergan kasalliklarning davosi tabiatning o‘zida” deya uqtirardi. Tabiblar esa kasalliklarning taxminan 70 foiziga davo giyohlarda, qolgan 30 foizi mineral toshlarda, deb ta’kidlaydi. Asrlar osha qadr-qimmatini yo‘qotmay kelayotgan ushbu purma’no hikmat zamirida ona tabiatning ajralmas qismi bo‘lgan inson yo‘liqadigan kasalliklarga davo atrofimizni o‘rab turgan borliqda mujassam, degan hayotiy haqiqat yotibdi. Faqat uni ilg‘ab, anglab o‘z o‘rnida foydalanish kerak.

Tabiat sirlari avloddan-avlodga o‘tib, xalqning necha ming yillik tajribalari natijasida sayqallanib, bizgacha yetib kelgan. Buni zardushtiylik ta’limotining muqaddas kitobi “Avesto” ham tasdiqlaydi. Uning barcha qismida, xususan, “Vendidod”da tabiblar tayyorlash, tabobat amaliyoti, kasalliklar tasnifi, ularning paydo bo‘lish sababi va omillari, noyob dorivor giyohlar haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan [1. B. 14].

Asosiy qism. Qadimgi diniy e’tiqodlardan biri bo‘lgan shomonlikda ham o‘ziga xos marosimlar tizimi mavjud bo‘lib, ularning hych biri marosimiy vositalarsiz o‘tmaydi. Shomonlar o‘zlarining ruhiy kuchlariga nisbatan ishonch-e’tiqodni yanada oshirish, maqsadga tezroq va qulayroq ravishda yetishish yoxud muayyan ta’sirni uzoqroq muddat saqlab turish maqsadida xilma-xil tashqi yordamchi vositalardan foydalanadilar.

Fargʻona vodiysi shomon-baxshilarining marosim atributlari jumlasiga childirma, qamchi, tasbeh, yigiruv charxi, uyali aloqa vositasi, kul, suv, pichoq, oyna, turli xil iplar, inson sochi, tol novdasi kabilar kiradi. Nomi qayd etilgan anjomlar vositasida vodiy shomon-baxshilari bemorlarni davolash ishlarini olib boradilar. Ana shunday marosim atributlaridan biri qamchidir.

Fargʻona vodiysi shomonlarining marosimiy anjomlari orasida qamchi muhim oʻrinni egallaydi [2. C. 74–75]. Qamchi yordamida bemor tanasiga kirib olgan yovuz ruhlarni urib, haydab chiqarish shomonlikning asosiy koʻrinishlaridan biri hisoblanadi. Qoʻqonlik Munavvar baxshi qamchi yordamida asosan, qoʻrquv kasalligiga duchor boʻlgan kishilarni urib davolaydi. Baxshining davolash muolajasi uch hafta davom etib, oxirida bemorning tanasiga yetkazilgan jarohat dam solingan suv bilan yuviladi [3. Dala yozuvlari. Fargʻona viloyati Qoʻqon shahri. 2009 yil.].

Oʻz oʻrnida shuni qayd etish kerakki, Fargʻona vodiysida olib dala-etnografik ekspeditsiyalar mobaynida ushbu hududda faoliyat olib borayotgan baxshilarning koʻpchiligi qamchini asosiy marosim quroli sifatida ishlatishlariga guvoh boʻlindi. Buning izohi axborotchilardan soʻralganida, ular inson badaniga qamchi tekkanidan keyin sodir boʻladigan oʻzgarishlar (badanning seskanishi, ogʻrishi va h.k.) natijasida bemorga ilashgan yovuz ruhlarning chiqib ketish jarayoni tezlashar ekan [4. Dala yozuvlari. Fargʻona viloyati Yozyovon tumani Choʻliguliston qishlogʻi. 2009 yil].

Shomonlik eʼtiqodining marosimiy qurollari orasida pichoq ham muhim ahamiyat kasb etadi. Pichoq oʻzbek, qozoq va qirgʻizlar shomonlik marosimlarida keng qoʻllanilib kelingan. Jumladan, izboskanlik Mavluda baxshi bemorlarni davolash jarayonida pichoqdan ham foydalanishini taʼkidladi. Baxshi pichoqning keskir tomonini bemorning yuzi va orqa badaniga tegizib, “kim boʻlsang ham chiq, nima boʻlsang ham chiq, chiqmasang qoʻymayman”, – deb yovuz ruhlarni haydaydi [5. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Izboskan tumani Yangiqishloq qishlogʻi. 2009 yil]. Shuni ham taʼkidlash kerakki, pichoqning marosimiy xususiyatlari faqatgina shomonlikda emas, vodiy aholisining anʼanaviy turmush tarzida ham namoyon boʻladi. Masalan, Fargʻona viloyati Dangʻara tumani aholisi orasida pichoq turgan dasturxonaga fotiha qilmaslik, pichoqning keskir tomoni bilan oʻzga kishiga bermaslik, pichoq bilan oʻynamaslik, uy hayvonlari oldida pichoq koʻrsatmaslik kabi taqiqlar mavjud [6. Dala yozuvlari. Fargʻona viloyati Dangʻara tumani Oqjar va Abdusamat qishloqlari. 2012 yil].

Ingliz etnolog J. Frezerning yozishicha, pichoq dunyo xalqlarida magik qudratga ega boʻlgan predmetlardan biri sanaladi. Ushbu roʻzgʻor buyumi Markaziy Osiyo xalqlari uchun ham xarakterli holat hisoblanadi [7. C. 67–70]. Masalan, etnolog olim G. Snesev pichoqning magik

qudratini J. Frezer qayd etgan metall buyumlarga nisbatan tabu saqlash odati bilan bog'liq holda izohlagan edi [8. C. 39–40]. Ushbu izoh to'g'ri, ammo u darajada to'liq emas. Juda ko'p xalqlarda metall buyumlarga nisbatan tabu saqlanishi ma'lum. Biroq, pichoqning magik qudrati, bir tarafdin, temir buyum ekanligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning o'tkirligi bilan aloqador.

O'z o'rnida shuni e'tirof etish kerakki, shomonlikda pichoq bilan dam urish keng tarqalgan amallardan hisoblanadi. Lekin, vodiylar hududida olib borilgan dala tadqiqotlari davomida baxshilarga “nima uchun pichoq bilan dam uriladi”, degan savol berilganida ular: “Amali bor odamni pichoq bilan o'qiladi. Chunki, pichoq keskir xususiyatga ega bo'lib, amalning bartaraf etilishida muhim o'rin tutadi”, – deb javob berishdan nariga o'tolmadilar [9. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Paxtaobod tumani Madaniyat qishlog'i. 2017 yil].

O'zbek, tojik va uyg'ur shomonlari davolash jarayonlarida daraxt novdalaridan tayyorlangan xivchidan ham foydalanadilar. V. Basilovning qayd etishicha, kuchli va taniqli shomonlar xivchidan, yangi yoki kuhsizlari esa oddiy cho'pdan foydalangan [10. C. 80].

G. Snesevning fikricha, daraxt shoxlaridan yasalgan dasta cho'p bilan davolash usuli zardushtiylikka borib taqaladi. Zardushtiylikda toldan yasalgan xivchin yovuz ruhlarni haydovchi asosiy vosita hisoblangan bo'lsa [11. C. 55–57], Gerodotning yozishicha, skif shomonlari tol novdalari yordamida fol ochgan va daraxtlarning tagida shomonlik marosimlarini o'tkazgan [12. C. 93].

Farg'ona vodiysi shomonlari xivchini erta bahorda tayyorlab, uni butun yil davomida ishlatadilar va har yili xuddi shu paytda yangilab oladilar. Xivchinlar dasta qilib bog'lanib, marosim o'tkaziladigan uyning burchagiga osib qo'yiladi. Xivchindagi novdalar soni qirq bittani tashkil qiladi. Baxshi xivchinning pastki qismidan ushlab, dastlab kasalning ustidan o'ngdan chapga qaratib, uch marta aylantirib oladi. So'ngra bemorning bosh va tanasining orqa qismlariga ura boshlaydi. Ushbu harakat xasta insonga ziyon yetkazgan yomon ruhlarni quvish maqsadida bajariladi [13. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Oltinko'l tumani Qo'shtepasaroy qishlog'i. 2010 yil.]. Bunga o'xshash odat O'zbekistonning boshqa hududlarida ham mavjud bo'lgan bo'lib, XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida samarqandlik tabiblar tol shoxlari yordamida kasallarga suyuqlik purkaganlar. Bundan tashqari, Xorazm va Samarqandda devu jinlarni qochirish uchun folbinlar barglari shilingan yettita tol xivchinlarini ishlatgan [14. B. 45].

Akademik Karim Shoniyozov qipchoqlarda shomon xivchini jiyda va tol shoxchalaridan tayyorlanib, asosan, “ko'chirma” marosimi paytida bemorni tanasiga kirib olgan yovuz ruhlarni haydash uchun ishlatilganligini qayd etgan bo'lsa [15. C. 329], L. Troitskaya esa Toshkent va

Samarqand shomonlarining xivchin yordamida bemorning bosh va yelka qismlariga qirq bir marta urib, darddan xalos etganlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yozib qoldirgan [16. C. 353].

O'zbek va tojik baxshilari shomon marosimlari jarayonida oynadan ham foydalanarlar. Oyna qadimiy marosimiy buyum bo'lib, dunyoning ko'pgina xalqlarida muqaddas buyum sifatida qadrlanib kelingan [17. C. 97–105]. Ma'lumki, ko'zgu haqida dunyo xalqlarining tasavvurlari xilma-xildir. Masalan, qadimgi Xitoyda singan ko'zgu baxtsizlik keltiradi, deb tasavvur qilingan bo'lsa, o'rta asrlarda yevropada aza bo'lgan xonadonda oynalar ustini yopib qo'yish kerak bo'lgan [18. B. 146]. Ko'zgodan ko'pincha jodugarlikda (xususan, ruhlar bilan muloqot uchun) foydalaniladi va unga berilgan xususiyatlarga ko'ra, fol ochish uchun qo'llanadigan billur sharga o'xshaydi.

V. Litvinskiyning fikriga qaraganda, skif, qadimgi xitoy, rus va nemis shomonlari oynaga qarab fol ochgan [19. C. 101]. V. Dyakonova esa Tuva shomonlarida oynaning osmondan tushganligini haqidagi fikr mavjudligini qayd etgan. Shomonlar ana shu oynani ruhlar tomonidan ularga ko'rsatilgan marhamat, deb bilganlar [20. C. 148].

Farg'ona vodiysida olib borilgan dala-etnografik tadqiqotlar mobaynida ushbu hudud baxshi va folbinlarining muolaja va shomonlik marosimlarida oynadan foydalanish holatlari kam kuzatildi. Faqatgina dang'aralik O'ktamxon baxshi o'z qabuliga kelgan odamlarning kelajagini oldindan bashorat qilish jarayonida oynadan foydalanadi [21. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Soyshildir qishlog'i. 2018 yil].

Farg'ona vodiysi shomonlari marosimlar mobaynida yigiruv charxidan ham foydalanadilar. Baxshilar bemorni o'z oldiga o'tirg'izib olib, charxni aylantira boshlaydi. Charx dastlab chapga, so'ngra o'ngga aylantiriladi. Charx aylanishi davomida bemor o'z xastaligi sabablarini aytib turadi. Shu vaqt mobaynida ruhlar charx atrofiga kelar ekanlar. Oradan, taxminan, 20–30 daqiqa o'tgandan so'ng baxshi charxni aylantirishni to'xtatadi. Bu jarayonda ruhlar o'zlarining asl holatiga qaytadi. Agar bemorga qilingan “amal” ko'p bo'lsa, charx orqaga aylantiriladi. Charx aylanishi davomida doimo uning yonida bitta kosada suv turishi kerak. Chunki, ruhlar doimo suvga intiladi [22. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Qo'sh tepa tumani Shomirza qishlog'i. 2017 yil].

Farg'ona vodiysi shomon-baxshilari davolash jarayonida kuldand ham unumli foydalanadilar. Chunki, kul qadimdan Markaziy Osiyo xalqlari uchun muqaddas unsur hisoblangan. Kulga nisbatan ilohiy qarashlar vodiy aholisining an'anaviy marosimlarida ham aks etgan. Jumladan, Farg'ona viloyatining Dang'ara, Uchko'prik, Buvayda va Namangan viloyatining Pop hamda Mingbuloq tumanlarida bemorga kinna soluvchi ayollar kuldand unumli foydalanadilar. Bemorni davolashdan oldin kosaga kul solinib, orasiga tuz qo'shib “suqdan va xasdan o'zi asrasin” deb

bemorning boshi va tana qismiga teggizib, uch marta aylantiriladi [23. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani Tumor qishlog‘i. 2019 yil]. Bunda kul va tuzning ta‘sir kuchi uyg‘unlashganligini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, vodiyning ayrim hududlarida kinna solish jarayonida agar insonga “nazar” qattiqroq tekkan bo‘lsa, kulning o‘rtasi o‘z-o‘zidan o‘yilib qoladi. Mazkur holatni ba‘zi bir baxshilar insonga tekkan “nazar”ning o‘ta kuchliligi bilan izohlaydi [24. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Shahrixon tumani Do‘lon qishlog‘i. 2010 yil]. Kulning magik qudratga egaligi va kinna quvishda undan foydalanish esa olovga sig‘inish qoldiqlaridan iborat.

Barcha jahon dinlari va diniy e‘tiqodlarda bo‘lgani singari shomonlikda ham suv muqaddas unsurlardan biri hisoblangan. Vodiy shomon-baxshilari bemorlarni davolashda suvdan unumli foydalanadilar. Jumladan, bemor biror-bir narsadan qattiq qo‘rqan bo‘lsa, har chorshanba va shanba kunlari erta tongda uning yuziga uch marta kaftda suv uriladi, so‘ngra bemorning ko‘krak qismi va orqasiga uch tomchi suv tomiziladi. Shunda bemorga tekkan qo‘rquv chiqib ketadi. Uchko‘priklik Muqaddas baxshining fikricha, bu yumushning erta tongda bajarilishiga sabab, bu paytda yovuz ruhlar uyquda bo‘ladi [25. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumani Qaqir qishlog‘i. 2009 yil]. Yoki dang‘aralik Sumbula baxshi bemor ko‘rish jarayonida asosan, tasbeh va suvdan foydalanadi. Baxshi suvni bemorning yuziga va qorni atrofiga sepadi. Shunda bemordagi barcha qo‘rquv va kasalliklar chiqib ketadi [26. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani Soyshildir qishlog‘i. 2018 yil].

Tadqiqotchi D. Mingboevaning qayd etishicha, dunyoning ko‘pgina xalqlarida suv ma‘budlar irodasini o‘tkazuvchi, osmon bilan muloqotda vositachi va taqdir jarchisi hisoblanadi. Shu bois turli fol ochish tizimlarida suvda namoyon bo‘ladigan timsollarni talqin etish keng tarqalgan. Folbinlar suv yuzasiga qarab, kelajakni, o‘tmishni ko‘ra oladi deb hisoblangan. Bu qadimiy holat shomonlarning billur sharlar, ya‘ni jodu kristallaridan foydalanganini asoslab beradi. Suv yordamida fol ochish va kelajak haqida xabar berish amaliyoti qadimgi yevropa, Shimoliy Afrika, Yaqin Sharq, Sharqiy va Shimoliy Osiyo, Polineziyada tarqalgan. Skandinaviya xalqlarida suv taqdir ramzi sifatida qadrlangan [27. B. 129].

Markaziy Osiyo hududiga islom dinining kirib kelishi natijasida shomonlikning mohiyati tubdan o‘zgara boshlagan. Shomonlik e‘tiqodining islom aqidalari bilan sinkretlashuv jarayoni yuz bergan. Avvallari baxshilar har bir marosimni boshlashdan oldin dastlab homiy ruhlarga iltijo qilgan bo‘lsalar, islom dini kirib kelgandan keyin baxshilar dastlab xudoga, payg‘ambarlarga va musulmon avliyolariga, so‘ngra o‘zlarining ustozlariga va homiy ruhlariga murojaat qila boshlaganlar. Ko‘pgina vodiy baxshilari an‘anaviy marosimiy atributlardan voz kechib, tasbehdan foydalanishga o‘tganlar. Jumladan, Havoxon baxshi, Ergash baxshi, Mavluda baxshi, Maqsuda va

Sumbula baxshilar o'z amallarini tasbeh orqali bajaradilar. Uychilik Ergash baxshining fikricha, tasbeh orqali fol ochish bemorning asabini tinchlantiradi [28. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Uychi tumani Yorqo'rg'on qishlog'i. 2012 yil].

Farg'ona vodiysi shomonlarining marosim atributlaridan yana biri – inson sochidir. Soch – insonning muhim tana a'zolaridan biri sifatida o'zining alohida vazifalariga ega. Dunyoning ko'pgina xalqlarida ayollarning sochi insonni yo'ldan ozdirish timsoli sifatida talqin qilinadi. Soch to'g'risidagi qarashlar qadimiy davrlarga borib taqaladi. Masalan, qadimgi shumerliklar soch, yasama soch va soqollardan yovuz ruhlardan himoyalani uchun foydalanganlar [29. B. 3]. Bundan tashqari, juda ko'p etnoslarda folbinlar, “issiq-sovuq” qiluvchi yosumanlar sochdan uning egasiga qarshi kuchli ta'sir etuvchi “qurol” sifatida foydalanadilar. Vodiy shomonlari esa sochni kishi ruhiy olamiga kirib boruvchi “yo'lak” deb hisoblaydi [30. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Buvayda tumani Ing'irchoq qishlog'i. 2009 yil]. O'z o'rnida shuni qayd etish kerakki, vodiyning ayrim hududlarida “issiq-sovuq” amalini bajaruvchi ba'zi bir odamlar inson sochi, tirnog'i, mix, qabriston tuprog'i, igna, qalampir, mayda tosh, otning qilidan unumli foydalanadilar [31. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Shahrixon tumani Do'lon qishlog'i. 2010 yil].

Xulosa. Xulosa sifatida shuni qayd etish lozimki, Farg'ona vodiysi shomonlarining marosim anjomlari tabiat unsurlari bilan bog'liq holda tayyorlanadi. Marosim anjomlarining aksariyat qismi hozirgi kunga qadar ishlatilib kelinmoqda. Faqatgina islom dini ta'siri ostida ayrim buyumlarning siqib chiqarilishi va yangilarining kirib kelishi holatlari kuzatilmoqda. Ushbu o'zgarishlar shomonlikning asl mohiyati yo'qolib borayotganligini anglatadi. O'z navbatida, islom dini bilan bog'lanib kelinayotgan ba'zi bir urf-odatlar shomonlik bilan o'zaro uyg'unlashgan bo'lib, uning ildizlari qadimiy davrlarga borib taqaladi. Bu esa tadqiqotchilarni yangidan-yangi ilmiy izlanishlarga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аширов А. “Авесто”дан мерос маросимлар. – Тошкент, 2001. – Б. 14.
2. Басилов В. Н. Шаманство у народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1992. – С. 74–75.
3. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Qo'qon shahri. 2009-yil.
4. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Yozyovon tumani Cho'liguliston qishlog'i. 2009- yil.
5. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Izboskan tumani Yangiqishloq qishlog'i. 2009- yil.
6. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Oqjar va Abdusamat qishloqlari. 2012- yil.
7. Фрезер Дж. Золотая ветвь. – М.: Политиздат, 1986. – С. 67–70.

8. Снесарев Г. П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – С. 39–40.
9. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Paxtaobod tumani Madaniyat qishlog‘i. 2017- yil.
10. Басилов В. Н. Шаманство у народов... – С. 80.
11. Снесарев Г. П. Реликты домусульманских верований... – С. 55–57.
12. Геродот. История. – Л.: Наука, 1972. – С. 93.
13. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Oltinko‘l tumani Qo‘shstepasaroy qishlog‘i. 2010- yil.
14. Кароматов Х. Ўзбекистонда мозий эътиқодлари тарихи. – Тошкент: ЖИДУ, 2008. – Б. 45.
15. Шаниязов К. Ш. К этнической истории узбекского народа. – Ташкент: Наука, 1974. – С. 329.
16. Троицкая А. Л. Лечение больных изгнанием злых духов (кучурук) среди оседлого населения Туркестана // Бюллетень Среднеазиатского государственного университета. – Ташкент, 1925. – №10. – С. 145.
17. Литвинский В. А. Зеркало в верованиях древних ферганцев // Советская этнография. – 1964. – №3. – С. 97–105.
18. Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими. – Тошкент, 2007. – Б. 146.
19. Литвинский В. А. Зеркало в верованиях древних ферганцев.. – С. 101.
20. Дяконова В. П. Предметы к лечебной функции шаманов Тувы и Алтая / Сборник Музея антропологии и этнографии. – Л., 1981. – С. 148.
21. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani Soyshildir qishlog‘i. 2018- yil.
22. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Qo‘shstepa tumani Shomirza qishlog‘i. 2017- yil.
23. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani Tumor qishlog‘i. 2019- yil.
24. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Shahrixon tumani Do‘lon qishlog‘i. 2010- yil.
25. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumani Qaqir qishlog‘i. 2009- yil.
26. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani Soyshildir qishlog‘i. 2018- yil.
27. Халмуратов Б. Р. Ўзбек халқи анъанавий дунёқараши ва миллий қадриятлари тизимида сув // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – 2010. – №2. – Б. 129.
28. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Uychi tumani Yorqo‘rg‘on qishlog‘i. 2009- yil.
29. Комилова Д. Соч ҳақида ҳақиқат // Маърифат гулшани. – 2009. – №46. – Б. 3.
30. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Buvayda tumani Ing‘irchoq qishlog‘i. 2009- yil.
31. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Shahrixon tumani Do‘lon qishlog‘i. 2010- yil.